



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2022 - yil 14 - yanvar

16-8-0-Q/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Viloyatdagi yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi
bo‘yicha 2022-yil 1-yanvar holatiga bo‘lgan yer hisobotini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-4819-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi 389-son qarorlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan, viloyatdagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va toifalari taqsimoti to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqib,

QAROR QILAMAN:

1. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan viloyatdagi mavjud yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi haqidagi hisoboti 1-ilovaga va qishloq xo‘jalik yer turlarining taqsimlanishi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Termiz shahar va tumanlar hokimlariga:

tuproq unumdorligini oshirish, ajratilgan yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan o‘rnatilgan tartibda nazoratni amalga oshirish;

yerdan foydalanuvchilar tomonidan o‘zlariga ajratilgan yerlardan yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda foydalanishini ta’minlash;

yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallashga hamda yerlarning talon-taroj bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer qonunchiligiga amal qilgan holda viloyat bo‘yicha yer kadastr hisobotlarining yuritilishi ustidan

doimiy nazorat o‘rnatsin.

4. Kadastr agentligining Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdirahmanov) sug‘oriladigan yerlardan qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan ehtiyojlar uchun yer uchastkalari ajratish bo‘yicha qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda ta’sir choralarini qo‘llasin hamda natijalari to‘g‘risida axborot taqdim etib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e’lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari U.Turapov zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimining birinchi
o‘rinbosari**



Mamanov F. B.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2022 йил 14 январдаги
16-8-0-Q/22-сон қарорига
1-илова

Mavjud yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi

(gektarda)

T/r	Yer fondi toifalari	Umumiy yer maydoni	shundan, suvli maydoni
1.	Shirkat xo'jaliklariga qarashli yerlar		
2.	Qishloq xo'jalik muassasalari (massivlar)ga qarashli yerlar	819727	262556
3.	Tashkilotlar va korxonalarga qarashli yerlar	526618	48933
4.	Qishloq xo'jalik ilmiy-tekshiruv muassasalari va o'quv yurtlari yerlari	2476	1984
5.	Yordamchi qishloq xo'jalik korxonalari	8540	4513
	Jami qishloq xo'jalik korxona va tashkilotlarining foylanadigan yerlari	1357361	317986
	Jumladan, ijaradagi fermer xo'jaliklar	418926	167450
6.	Shahar va shahar turidagi qishloqlar yerlari	11360	2872
7.	Sanoat transport, mudofaa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladigan yerlar	111106	273
8.	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish rekreatsiy maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	194	3
9.	Tarixiy-madaniy ahamiyatlarga molik yerlar	517	5
10.	O'rmon fondi yerlari	322989	3211
11.	Gidrotexnik va boshqa suv xo'jalik inshootlari hamda kanal bo'yidagi yerlar	24020	302
12.	Zaxira yerlar	182364	247
	Jami yerlar	2009911	324899

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2022 йил 14 январдаги
16-8-0-Q/22-сон қарорига
2-илова

Qishloq xo'jalik yer turlarining taqsimlanishi

(gektarda)

T/r	Yer turlari	Jami maydoni	shundan, suvli maydoni
1.	Ekin yerlar	277947	238464
	Shundan, holati yomon yerlar	19744	19744
2.	Ko'p yillik daraxtzorlar	34215	32796
	Shundan:	15605	14638
	Bog'lar	13319	13184
	Uzumzorlar	4557	4557
	Tutzorlar	734	417
	Mevali ko'chatzorlar va boshqa ko'p yillik daraxtzorlar		
3.	Bo'z yerlar	292	
4.	Yaylovlar	825229	
	Jami yerlar	1137683	271260